

ТАЪЛИМ ВА ТЕХНОЛОГИЯ

Илмий-услубий мақолалар тўплами

I
ҚИСМ



shakllantiruvchi qo'shiqlar mavjud. Masalan: "Odobli qizcha", "Oftob yaxshimi, odob yaxshimi?", "Yaxshi bola", "Vatanjonim – Vatanim" kabi she'rlarni dars jarayonida musiqa orqali ijro etib, mazmuni o'quvchilar bilan o'rtoqlashilsa, ishning maqsadiga erishish oson kechadi.

Xulosa qilib aytganda, insoniyat aql nuri bilan sarafroz etilibdiki, farzand tarbiyasi to'g'risida tinimsiz izlanadi. Inson tarbiyasi, kamoloti har qanday jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Zero, jamiyatning shakllanishi, rivojlanishi, ravnaq topishi shu jamiyatdagi yoshlarning bilim salohiyatiga, tarbiyasiga bog'liqdir. Musiqa madaniyati darslarinig asosiy vazifasi o'quvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol inson qilib shakllantirish va voyaga yetkazishdir.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mavlonova R., To'rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 2001.
3. Xasanboyev J., Turaqulov X., Alqarov I., Usmonov N. Pedagogika. T.: Noshir, 2011.
4. Aminov M.N. Tarbiya: ensiklopediya. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

XALQ MUSIQA MEROSI O'QUVCHI – YOSHLARDA MILLIY G'OYA VA MAFKURANI SHAKLLANTIRISH OMILI

E.Abdukarimova – JDPI; Z.Karimov** – SamDU

Xalq donishmandligining go'zal, badiiy-estetik ko'rinishi bo'lgan o'zbek xalq musiqa merosi hamma zamonlarda ham kishilarni ma'naviy, madaniy, axloqiy-estetik, shu bilan birga milliy-madaniy an'analar va qadriyatlarimizga sodiqlik, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda benazir vosita bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasining mustakil rivojlanish yo'liga utishi sharofati bilan amalga Oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaiy - ma'rifiy o'zgyrishlar natijasida tarixiy, milliy-malaniy kadriyatlarni tiklash, o'rgaiish, ularday ta'limiy va tarbiyaviy maksadlarda keng foydalanish imkoniyati yaratildi.

Ta'lim-tarbiya jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanishi, ularning mustahkamligini ta'minlovchi omil bo'lib, uning

miliy negizini yaratishda birinchi iavbatda xalkimizning juda boy va o'ziga xos milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayanish zarurligi va shu asosda uni shakllangirish Prezidentimiz I.A.Karimoviing yangi jamiyag qurish yo'lida yaratgan asarlarida har tomonlama asoslab berildi. Jumladan "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" nomli tarixiy nutqida shunday deyiladi: "Zamonaviy milliy ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak?... Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday usulda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak?" (1).

Yoshlar ta'lim-tarbiyasida milliy-ma'naviy g'oyalarni aks etishi xalqimizning asriy orzularining amalga oshishini in'ikosi hisoblanadi. SHu nuqtai nazardan qaraganda xalqimizning muayyan tarixiy boskichlarini, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy turmush tarzi, hayotiy falsafasi va ruhiyatini o'zida mujassam etuvchi xalq musiqa merosi mazmunida milliy g'oya va mafkuraning eng muhim tendensiyalari mujassamlashganligini ko'rish mumkin. Xalq musiqa merosiga mansub turli janrlarda yaratilgan namunalarni o'rganish, g'oyaviy-badiiy mazmunini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda Vatan, Ona tabiat, insonga mehr-muhabbat, tinchlik, adolat, eng oliy insoniy fazilatlar: halollik, to'g'rilik, odob-axloq, sof muhabbat, Vatan ravnaqi, el manfaati uchun o'zini safarbar etish g'oyalari tarannum etiladi. Mana shunday badiiy-estetik qimmatga ega san'at asarlari yosh avlodni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyag kasb etishi shubhasiz. Shunday ekan respublikamizda amal qilayogan ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida o'quvchi-yoshlarni milliy musiqa merosimizniig eng nodir namunalari – xalq qo'shiqlari, ashulalari, mumtoz kuy va maqomlari bilan chuqur tanishtirib borish, shu orqali ularda milliy ong, milliy mafkura, yuksak madaniyatni shakllantirib borishga dolzarb vazifa sifatida qaralmog'i lozimligini e'tirof etish o'rinlidir. Bunday ish tutish birinchidan, ta'limning milliy negizini mustahkamlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy o'zlikni teranroq his etishlariga; uchinchidan, ularni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash imkoniyatlarini oshirishga olib keladi. By esa ta'limning eng muhim shakllantiruvchi bosqichi bo'lgan umumta'lim maktablarida musiqa fani bo'yicha o'quv dasturlari va darsliklari repertuariga kiritilgan kuylash, tinglash, o'rganish va ijro etish uchun tavsiya etilgan asarlarni qayta ko'rib chiqishni, o'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublariga xos aytimlari, mavsum va marosim qo'shiqlari hamda mumtoz va maqom san'atiga tegishli bilim, tushuncha va malakalarni shakllantirishga mo'ljallangan

o'quv materiallarini ma'lum sinf va chorak mavzulari doirasida cheklanib qolmasligiga e'tiborni qaratish, nisbatan ancha murakkab, professional ijod mahsuli bo'lgan mumtoz musiqaga oid kuy-qo'shiqlarni sinf va sinfdan tashqari jarayonlar uzviyligida o'rganib borilishiga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z-o'zidan ravshanki, bunday maqsad va vazifalarni amalga oshirish o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni, xalq musiqa ijodiyoti, xususan, mumtoz va maqom musiqasiga bag'ishlangan o'quv materiallarini sinflar kesimida, o'quvchilarni imkoniyatlari doirasida berilishiga, ularni hajmini kengaytirish, mazmunini yanada boyitish, o'quv soatlari miqdorini ham ko'paytirishni taqozo etadi.

Musiqa darslarida o'quvchi-yoshlarni xalq qo'shiqlari mumtoz va maqom namunalari bilan tanishtirib borishning asl mazmunida ularni xalqimizning asrlar osha o'z badiiy qimmatini yo'qotmay kelayotgan nodir boyliklarini asrash, ularning qadriga etish, asrab-avaylash, mukammal egallab olish va yangi talqinlar bilan bezash, kelgusida vorislik qilishga tayyorlash masalalari yotadi.

Aytish joizki, o'zbek xalq mumtoz qo'shiq va ashulalari negizida xalq og'zaki ijodi yoki mumtoz she'riyatga daxldor matnlar yotadi. Mumtoz adabiyot vakillari tomonidan yaratilgan she'riy asarlar yuksak ijod namunalari sifatida xalqimiz tomonidan e'zozlanib kelinadi. Ularning badiiy asar sifatida yuksak iste'dod va ilhom mevasi ekanligi, ular mazmunida ifodalangan umuminsoniy goyalar, ilohiy ishq ta'rifi bayon etilgan lirik kechinmalar, nozik his-tuyg'ular, tasvir va tashbehlar, o'xshatish, ranglar tasviri har qanday kishi qalbida ajib hissiyotlar va nafosat tuyg'ularini o'yg'otadi. Bu kabi she'r va gazallarga bastalangan kuy orqali musiqaning sehrli ta'siri uyg'unlashib inson hissiyotiga kuchli emosional ta'sir etishi bilan estetik tarbiyaning g'oyat kuchli, betakror vositalaridan biriga aylanadi. Biz mumtoz musiqa orqali musiqiy estetik ta'lim va tarbiyani tashkil etishning pedagogik asoslariiii o'rganish yuzasidan izlanishlar jarayonida shunga amin bo'ldikki, umumta'lim maktablarida mumtoz musiqa mavzusida darslarni tashkil etilishi, o'tilishida jiddiy va o'z echimini kutayotgan muammolar mavjud. Bular eng avvalo quyidagilarda ko'rinadi:

1. Umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarni o'zbek mumtoz va maqom musiqasi bo'yicha yetarli malakaviy tayyorgarlikka ega emasliklari.

2. Mumtoz musiqaga oid asarlarni nazariy va amaliy o'zlashtirish jarayonini sifat va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan maxsus

metodikani ishlab chiqilmaganligi.

3. Umumta'lim maktablari o'quvchilarini psixologik, fiziologik yosh xususiyatlari, amaliy ijrochilik imkoniyatlariga ko'ra tavsiya etilgan asarlar repertuari shakllantirilmaganligi;

4. Maktab ta'limida mumtoz asarlarni kuylashga, tinglashga nisbatan ustuvor ahamiyat berilishiga ko'ra maxsus fonoteka, ko'rgazmali va texnik vositalar bilan ta'minlanmaganligi;

5. Mumtoz musiqa mavzusidagi darslarni pedagogik, metodik, didaktik jihatdan samarali tashkil kilish bo'yicha tajribalarni ommalashtirilmaganligi va maxsus metodik ko'llanmalarni yaratilmaganligi.

Ushbu muammolarni ijobiy hal etish umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz qo'shiqchilik san'ati bilan o'quvchi-yoshlarni har tomonlama chuqur tanishtirib borish, ularda milliy xalq musiqasiga hurmat, mehr-muhabbag, ularni o'rganishga ishtiyoqini kuchaytirishga va shu orqali ularni milliy g'oya va mafkura ruhida tarbiyalash ishlarini samarali kechishiga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq. 1997.

2. Qudratov I. Talabalarni xalq qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash. T.: Fan, 2009.

3. Hasanov A.. Musiqa va tarbiya. T.: O'qituvchi, 1993.

4. Fayzullaev E. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari ba'diiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish. T.: Fan va texnologiya, 2008.

5. Tursunov R. Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. T.: Ma'rifat-madadkor, 2002.

BOLALAR FOLKLOR QO'SHIQLARINI O'RGANISHNING MILLIY MUSIQIY TA'LIMDAGI O'RNINI VA AHAMIYATI

I. Qudratov, U. Ximoydinov** – SamDU

Milliy g'oya va mafkura o'z mazmunida ma'naviy va madaniy me'rosimiz, milliy qadriyatlarimizni mujassam etadi. Madaniy va ma'naviy meros avlod-ajdodlarimiz tomonidan yaratilib, bizgacha yetib kelgan

- 152 **B.Boltayev, B.G'oyipov.** Musiqa darslarida o'quvchilarining ijodiy faolligini oshirish hamda musiqiy bilimlar o'zviyiligini ta'minlash yo'llari 487
- 153 **B.Boltayev, B.G'oyipov.** Musiqa darslarida o'quvchilarining ijodiy faolligini oshirishda mustaqil ta'limning o'rni 490
- 154 **I.Qudratov, U.Isomitdinov**.** Musiqa san'ati – talaba shaxsining badiiy-estetik va ma'naviy kamolotini shakllantirish omili 494
- 155 **Э.Қобилова, Н.Мадаминов, Г.Абдуқаххорова*.** Мусиқа дарсларида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ошириш йўллари 498
- 156 **Sh.Shayqulov, G.Davronova.** O'quvchilarda milliy kuy-qo'shiqlar orqali axloqiy madaniyatni shakllantirish xususida 501
- 157 **Abdukarimova, Z.Karimov**.** Xalq musiqa merosi o'quvchi – yoshlarda milliy g'oya va mafkurani shakllantirish omili 504
- 158 **I.Qudratov, U.Ximoydinov**.** Bolalar folklor qo'shiqlarini o'rganishning milliy musiqiy ta'limdagi o'rni va ahamiyati 507
- 159 **S.Asqarova.** Umumta'lim maktablarida xor to'garagini tuzishning o'zga xos xususiyatlari 511
- 160 **Х.Юсупов, Э.Жалилов, Д.Остонакулова.** Ходжи Абдулазиз Расулев и национальная музыка 513
- 161 **Ф.Якубжонова, З.Бобоев, А.Гофуров.** Спорт тўгаракларида ҳаракатли ўйинларнинг моҳияти 516
- 162 **М.Носиров, Э.Давронов, И.Якубжонов.** Основные средства физической и технической подготовки 518
- 163 **М. Носиров, И. Якубжонов, Ф Якубжонова.** Теннис без корта 520
- 164 **К.Облобердиева, З.Исомиддинов, А.Нематов*.** Интерфаол ўқитишнинг асосий тамойиллари 523
- 163 **Ш.Буваматава.** Услубчилик парвонаси (такриз ўрнида) 525